

*Masofa*

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLJIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN MUHANDISLIK - QURILISH INSTITUTI**



**NamMQI**  
**O'quv-uslubiy boshqarma**  
№ 14  
"30" 08 '24

2024 yil " 30 " 08

**MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI FANINING**  
**O'QUV DASTURI**

- Bilim soxasi: 600000 – Axborot-kommunikasiya texnologiyalari
- Ta'lim sohasi: 610000 – Axborot-kommunikasiya texnologiyalari
- Mutaxassisligi: 70610101 – Kompyuter tizimlari va ularning dasturiy ta'minoti

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ESTS – Kreditlari
MFOM1106	2024-2025	1	6
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari	
majburiy	O'zbek	6	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. Mahsus fanlarni o'qitish metodikasi	Jami 90 (46 m / 44 a)	90	180
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanning maqsadi</b> – magistrantlarni mahsus fanlarni o'qitish metodlari bo'yicha puxta bilim olish, ilmiy-tadqiqot va ilmiy pedagogik ishlarini olib borishni o'rganish, pedagogik faoliyatiga va ilmiy faoliyatga «Ta'lim to'grisida»gi Qonunida belgilangan vazifalar hamda Davlat ta'lim standartiga ko'ra qo'yilgan talablar darajasida maxsus fanlarni o'qitish metodlarining nazariy asoslari bilan izchil qurollantirishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – magistrantlarni ta'limning me'yoriy xujjatlari, ma'ruza o'qitish, laboratoriya, amaliy seminar va boshqa mashg'ulotlarni o'tkazish usullari; o'quv jarayoni, mustaqil ishlar o'quv-uslubiy va tashkiliy ta'minlanganligi; o'quv jarayonini va yuklamalarni rejalashtirish, bilimlarni baholash tizimi, ilmiy va tarbiyaviy ishlar bilan tanishtirish; Kasbiy va umumtexnik bilim va ko'nikmalarni hosil qilish jarayonida talabalar faoliyatini tashkil etish va uni boshqarishni loyihalay olish bo'yicha malakalarini shakllantirish.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II. 1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-modul. Kirish. OTMlarda o'quv jarayonini tashkil etish</b></p> <p><b>1-mavzu. Kirish. Ta'lim tizimining tuzilmasi.</b></p> <p>Bilim olishda uzviylikni ta'minlash bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining tuzilmasi. Oliy ta'lim – uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi.</p> <p><b>2-mavzu. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.</b></p> <p>Kredit ta'lim tizimi asoslari. Xorijda kredit ta'lim tizimi. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish.</p>		

**3-mavzu. Kredit – modul tizimida o'quv jarayonini tashkil qilish.**  
O'quv jarayonini rejalashtirish. O'quv jarayonini tashkil etish. Talabalarning mustaqil ishini va bilimni nazorat qilishni tashkil etish.

**4-mavzu. Ta'lim sohalarning Davlat ta'lim standartlari, Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlari.**

DTSlarining tavsifi, maqsadi va vazifasi. Bakalavrlar va magistrlar tayyorlashning malaka talablari, o'quv rejalari, ularning vazifasi va tavsifi. Fan bloklarining vazifasi va tavsiflari, fan dasturlari.

**2-modul. Texnika oliy o'quv yurtlarida o'quv-tarbiyaviy jarayoni.**

**5-mavzu. Texnika oliy o'quv yurtlaridagi o'quv-tarbiyaviy jarayonining asosiy toifa (kategoriya) lari va qonuniyatlari.**

O'quv-tarbiyaviy jarayonining tuzilmasi. O'quv-tarbiyaviy jarayonining asosiy qonuniyatlari. O'qitish jarayonining umumiy qonuniyatlari va o'qitishning asosiy tamoyillari.

**6-mavzu. Texnika oliy o'quv yurtidagi o'qitish usullari. O'qitish uslubiyatining asosiy tamoyillari.**

O'qitish va dars berish – o'qitishning ikki shakli. O'qitish uslubiyatining asosiy qoidalari. O'qitish usullarining tasniflanishi.

**7-mavzu. Oliy o'quv tashkilotidagi o'qitishning tashkiliy shakllari.**

Bilim va uni o'zlashtirish darajalari. Ma'ruza – o'qitishning asosiy shakli. Amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari – ko'nikma va malakalarini rivojlantirish shakllari. Mustaqil ta'lim – ish o'rganish faoliyatining faol shakli.

**3-modul. Maxsus fanlarni o'qitish uslubiyoti**

**8-mavzu. Texnika oliy o'quv yurtida maxsus fanlarni o'qitishning uslubiyoti.**

Oliy o'quv yurti pedagogining asosiy funksiyalari. Pedagogning o'ziga xos sifatleri. Texnika oliy o'quv yurtlarida maxsus fanlarni o'qitishning xususiyatlari va muammolari.

**9-mavzu. O'quv mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari.**

Maxsus fanlarni o'qitish uslubiyatini ishlab chiqishning asosiy qoidalari. O'qitishning maqsadlarini aniqlash va ifodalash. Ma'ruza mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish

**10-mavzu. O'quv mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari (davomi).**  
Amaliy, laboratoriya mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish. Talabalarni mustaqil ishlarini tashkil qilish va baholash. Amaliy, laboratoriy mashg'ulotlari va mustaqil ishlarining o'quv-uslubiy ta'minoti.

**11-mavzu. Talabalar bilimni nazorat qilish va baholashni tashkil etish va ta'minlash.**

O'quv jarayonida bilim sifati nazoratining ahamiyati, bilim nazoratini sifati o'tkazishning asosiy qoidalari. Bilim nazoratining ko'rinishlari va uni o'tkazishning shakllari.

**12-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini foydalanish xususiyatlari.**

Zamonaviy ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari. Pedagogik texnologiyalarni loyixalashtirish va rejalashtirish.

**13-mavzu. Fanning o'quv-uslubiy majmuasi va modulli o'qitish texnologiyasi.**

Alohida fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmua va o'quv moduli: aniqlashlar, maqsad va vazifalar. Xorijiy mamlakatlar va O'zbekiston oliy ta'lim amaliyotida o'quv-uslubiy majmualarini joriy etish holati. Modulli o'qitishning mohiyati.

**14-mavzu. Oliy ta'limda foydalaniladigan o'quv adabiyotlarining shakli va turlari. O'quv adabiyotlarini yaratishga qo'yiladigan talablar.**

O'quv adabiyotlarining shakli va turlari. O'quv adabiyotlarini yaratishga qo'yiladigan umumiy talablar. O'quv adabiyotlariga qo'yiladigan talablar va uning funksiyalari

**15-mavzu. Maxsus fanlar uchun darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, uslubiy ko'rsatma va boshqalarni tayyorlash.**

O'quv adabiyotlarining shakli va turlari. Maxsus fanlar uchun darslik, o'quv qo'llanma. Uslubiy qo'llanma, uslubiy ko'rsatma. Ma'lumotlar to'plami (banki). Ma'ruzalar kursi.

**16-mavzu. Elektron o'quv adabiyotlarini yaratish tamoyillari va ularga qo'yiladigan talablar.**

Elektron o'quv adabiyotlarini yaratish tamoyillari. Elektron o'quv adabiyotlarini yaratishga qo'yiladigan talablar

**17-mavzu. Maxsus fanlardan multimedia o'quv kursining elektron o'quv-uslubiy majmuasini yaratish uslubiyati.**

Fanning elektron o'quv-uslubiy majmuasini yaratish bo'yicha talabalar. Fanning elektron o'quv-uslubiy majmuasi komponentlari. Elektron o'quv-metodik majmuasini yaratish metodikasi va uni amaliyotda qo'llash.

**4-modul. Maxsus fanlarni o'qitishda zamonaviy informatsion talim texnologiyalari (Media) yordamida o'qitish va o'qish jarayonini tashkil etish.**

**18-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalari.**

Zamonaviy informatsion talim texnologiyalari asosida o'qitish. Media yordamida o'qish jarayonini tashkil etish. Mediani qo'llash didaktikasining asosiy xususiyatlari, mediani qo'llash kompetensiyasi – elektron o'qish va o'qitish vositalarini tanlash. Didaktika haqida tushuncha. Mediani qo'llash didaktikasining asosiy xususiyatlari. Elektron o'qish va o'qitish vositalarini tanlash.

**19-mavzu. O'quv jarayonida qo'llanayotgan elektron darslik va qo'llanmalarni yaratish texnologiyalari, elektron o'quv vositalari yaratishda qo'llanadigan zamonaviy dasturiy va multimedia vositalarining imkoniyatlari.** Elektron o'quv vositalari. Elektron darslik. Elektron o'quv qo'llanma. Elektron darslik va qo'llanmalarni yaratish texnologiyalari. Zamonaviy dasturiy va multimedia vositalari.

**20-mavzu. Elektron qo'llanmalar yaratishga qo'yiladigan didaktik, pedagogik va psixologik talablar.**

Elektron qo'llanmalar. Didaktik talablar. Pedagogik talablar. Psixologik talablar.

**21-mavzu. Masofaviy o'qitishning tashkiliy asoslari. Masofaviy o'qitish. Masofaviy o'qitish modellari. Masofaviy o'qitishning usullari.**

Masofaviy o'qitishning texnologiyalari va tashkiliy asoslari. Masofaviy ta'limda o'zaro aloqa. Masofadan o'qitishni tashkil etishdagi muammolar va ularning yechimlari. Masofadan o'qitish hozirgi holati va istiqbollari.

**22-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishning uslublari, vositalari va shakllarini takomillashtirish.** Axborot tizimlari va texnologiyalari sohasidagi fan va aaliyotning eng zamonaviy yutuqlari asosida maxsus fanlarni doimiy yangilash va to'ldirish. Maxsus fanlar uchun o'quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlash va ta'minlash.

**23-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari.** O'qituvchi va talabani yaxshi yo'lga qo'yilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tizimi. Maxsus fanlarni o'qitish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilish. Ilmiy maqola tayyorlashni o'rganish.

**III. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar kafedraning o'quv-laboratoriya xonalarida, kompyuterli xonalarda olib boriladi. Har qaysi amaliy ishni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma ishlab chiqiladi va talabalarga yetkaziladi.

Talabalar amaliy mashg'ulotlarga nazariy jihatdan tayyorlangan holda kelishlari lozim. Amaliy mashg'ulotlarning barchasi taxsil olayotgan yo'nalishdagi mutaxassislik fanlari misolida o'tkaziladi va topshiriqlar bajariladi.

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunni va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish.
2. Kredit modul tizimida o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish.
3. Kredit – modul tizimida talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish va bilimlarini nazorat qilish.
4. Oliy o'quv yurtlarining "Axborot tizimlari va texnologiyalari" ta'lim sohasi bo'yicha DTS bilan amaliy jihatdan tanishish.
5. Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalarini va fan dasturlari bilan amaliy jihatdan tanishish.
6. O'quv yuklamalarini aniqlash, maxsus fanlarning o'quv dasturlarini va ishchi o'quv dasturlarini hamda kalendardar rejalarni ishlab chiqishni o'rganish.
7. Maxsus fanlarni o'qitish shakllari va o'qitish uslublarini o'rganish.
8. Texnika oliy o'quv yurtida maxsus fanlarni o'qitishning xususiyatlari va muammolari. Pedagogning o'ziga xos sifatleri.
9. Ma'ruza darsini tashkil etish, ma'ruza matnini tuzish va uni o'tkazishni o'rganish.
10. Amaliy, laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uslubiyotini tuzishni o'rganish.
11. Talaba bilimini baholashni rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazishni o'rganish.
12. Mustaqil ish soatlarining taqsimlanishi va ularni baholash tartiblari.
13. Maxsus fanlardan talabalar kurs ishlarini va loyihalarni tashkil etish va

<p>baholash.</p> <p>14. O'quv adabiyotining qo'lyozmasini texnikaviy ko'rsatkichlarini xisoblash masalalari. Qo'lyozmalarga talablarni o'rganish.</p> <p>15. Alohida fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqishni o'rganish.</p> <p>16. Maxsus fanlarda pedagogik texnologiyalarni loyixalash va rejalashtirishni o'rganish.</p> <p>17. Fanning elektron o'quv-uslubiy majmuasini yaratish va uni OTM elektron kutubxonasiga joylashtirishni o'rganish.</p> <p>18. Media yordamida o'qitish vositalarini o'rganish. Virtual o'qitish vositalari.</p> <p>19. O'quv mashg'ulotlari uchun videodarslar yaratish texnologiyasini o'rganish</p> <p>20. Elektron qo'llanmalar yaratishga qo'yiladigan didaktik, pedagogik va psixologik talablarni asosida o'quv mashg'ulotlari uchun taqdimot tayyorlash. Ispring dasturini o'rganish.</p> <p>21. Masofaviy o'qitish modellari va masofaviy ta'lim platformalarini o'rganish.</p> <p>22. Maxsus fanlarni o'qitishning uslublari, vositalari va shakllarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar va takliflarni o'rganish. Maxsus fanlarni o'qitish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilish. Ilmiy maqola tayyorlashni o'rganish.</p>	<p><b>IV. i. laboratoriya ishlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</b> O'quv rejada laboratoriya ishlarini bajarish ko'zda tutilmagan.</p> <p><b>V. Kurs ishi (loyihasi) lari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</b> O'quv rejada kurs ishi (loyihasi)ni bajarish ko'zda tutilmagan.</p> <p><b>VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</b> Magistrant mustaqil ishni tashkil etishda 60610200-Axborot tizimlari va texnologiyalari bakalavr yo'nalishi o'quv rejasidagi mutaxassislik fanlaridan birining bitta ma'ruza, amaliy yoki tajriba mashg'ulotlari uchun ma'ruza matni, taqdimot (uslubiy qo'llanma, uslubiy ko'rsatma) tayyorlash va dars mashg'ulotda ulardan foydalanish.</p> <p style="text-align: center;"><b>Mustaqil ta'lim topshiriqlari:</b></p> <p>1. Tanlangan fan ma'ruza mavzusi bo'yicha dars rejasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Tanlangan fan ma'ruza mavzusi bo'yicha taqdimot tayyorlash.</p> <p>3. Tanlangan fan amaliy mashg'ulot rejasini ishlab chiqish.</p> <p>4. Tanlangan fan amaliy mashg'ulot uchun uslubiy qo'llanma yoki uslubiy ko'rsatma ishlab chiqish.</p> <p>5. Tanlangan fan mavzusi bo'yicha savollar banki ishlab chiqish.</p>
--	--

<p>6. Tanlangan fan mavzusi bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqish.</p> <p>7. Tanlangan fan mavzusi bo'yicha testlar bankini ishlab chiqish.</p> <p>8. Tanlangan fan mavzusi bo'yicha bir juftlik mashg'ulotni tashkil etish.</p>	<p><b>3. VII. Fan o'qitilishining natijalari</b> (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni; oliy o'quv tashkilotlarida ta'lim va o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha huquqiy-me'oriy va o'quv me'oriy hujjatlar; o'quv mashg'ulotlarini o'quv uslubiyadabiyotlar va vositalar bilan ta'minlash tizimi; talabani o'qitish va bilimni tekshirish hamda baholash tartiblari; ularni qo'llash uslubiyati to'g'risida tasavur va bilimga ega bo'lishi.</li> <li>- maxsus fanlarning o'quv dasturlarini tuzish va ular asosida ishchi oquv dasturlarni ishlab chiqish; ma'ruza darslarini tashkil etish; ma'ruza matnlarini tuzish va uni o'tkazish; amaliy-laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishni va ularni o'quv-uslubiy adabiyotlar va vositalar bilan ta'minlashni amalga oshirish; talaba bilimini baholashni rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazish ko'nikmasiga ega bo'lish.</li> </ul>
<p><b>4.</b></p>	<p><b>VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Ma'ruzalar;</li> <li>- Intelektual pedagogik texnologiyalar va grafik organayzerlar;</li> <li>- Guruhlarda ishlash;</li> <li>- Taqdimotlarni qilish;</li> <li>- Individual ishlamlar;</li> <li>- Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
<p><b>5.</b></p>	<p><b>IX. Kreditalarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
<p><b>7</b></p>	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <p>1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" ga qonuni 2020.</p> <p>2. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami, I va 2-qismlar. T.: 2013.</p> <p>3. Atamuratova T., Ergasheva X., Qurbonov M. «Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi». «Yangi asr avlodi», 2008. – 144 b.</p> <p>4. Zaripova D.A., Hamrayeva G.R. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: "Aloqachi", 2020. – 132 b.</p> <p>5. Перегудов Л.В., Саидов М.Х., Аликулов Е. Илмий ижод методологияси. Т., «Молия», 2002.</p> <p>6. Иноят У.И., Муслимов Н.А., Рўзиева Д.И., Усмонбоева М.Х. Педагогика:</p>

<p>нопедагогик олий таълим муассасалари учун мўлжалланган дарелик. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2016. – 256 б.</p> <p>7. Чичерина Я.Е., Нуркелдиева Д.А., Якубжанова Д.Б. Мутахассислик фанларини ўқитиш методикаси. –Т.: «Fan va texnologiya», 2014, 128 бет.</p>	<p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <p>1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" 2017 – 488 b.</p> <p>2. Мирсаидов К.Ж. Махсус фанларни ўқитиш ва ишлаб чиқариш таълими. Т. Ўқитувчи. 1996. –188 б.</p> <p>3. Ишмухамедов Р. Таълимда инновацион технологиялар: таълим муассасалари педагоглари учун амалий тавсиялар. Т. Истеъдод, 2008. – 256 б.</p> <p>4. Мирсаидов К.Ж., Хидиров Ў., Чориев Р. «Ишлаб чиқариш таълими». Т.: «Ўқитувчи», 2002. –234 б.</p> <p><b>Axborot manbaalari</b></p> <p>1. www.ziyounet.uz – Jamoat ta'lim tarmog'i</p> <p>2. www.lex.uz. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi</p> <p>3. www.kitobxon.com – elektron adabiyotlar sayti</p> <p>4. https://ziyouz.uz – Ilmiy va badiiy elektron adabiyotlar sayti</p> <p>5. Fanning o'quv dasturi Namangan muhandislik qurilish instituti Kengashining " " 202 yildagi № - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p> <p>6. <b>Fan/modul uchun ma'sul:</b> U.Goyipov - NamMQI, «Axborot tizimlari va texnologiyalari» kafedrası dotsenti v.b.</p> <p>10. <b>Taqrizchi(lar):</b> M.To'xtasinov - NamMQI, «Axborot tizimlari va texnologiyalari» kafedrası dotsenti. A.Isomiddinov - NamMQI, «Texnik tizimlarda AT» kafedrası dotsenti.</p>
---	--